

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING  
QARORI**

**XORIJIY DAVLATLARDA TA’LIM OLGANLIK TO‘G‘RISIDAGI HUJJATLARNI TAN  
OLISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 16-yanvardagi PQ-4119-son [qaroriga](#) muvofiq Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi nizom [1-ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki:

xorijiy davlatlarda o‘rta maxsus, kasb-hunar, oliy, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta’lim muassasalarida ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish to‘g‘risidagi arizalar faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi;

xorijiy davlatlarda umumiy o‘rta va o‘rta ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish to‘g‘risidagi arizalar 2019-yil 1-sentabrdan boshlab faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki O‘zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinadi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi bilan birgalikda uch oy muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga ulanishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi:

a) O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi bilan birgalikda:

ikki hafta muddatda xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan elektron shakldagi hujjatlarning namunaviy shakllarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

bir oy muddatda davlat xizmatlari markazlarining xodimlari uchun xorijiy davlatlarda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan o‘quv-amaliy seminarlar o‘tkazilishini ta’minlasin;

b) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda ikki oy muddatda ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlari to‘g‘ridan to‘g‘ri (maxsus sinovlarsiz) tan olinmaydigan ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklar va kasblar ro‘yxatini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi o‘z hududiy bo‘linmalarining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga ulanishi hamda samarali faoliyat ko‘rsatishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [2-ilovaga](#) muvofiq ba’zi qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining [3-ilovaga](#) muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiya manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda ular qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari A.A. Abduxakimov va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘i U.N. Tashkenbayev zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2019-yil 24-iyul,  
620-son

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi 620-son qaroriga  
1-ILOVA

## **Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqida**

### **NIZOM**

#### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom xorijiy davlatlarda umumiy o'rta, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi 1992-yil 1-yanvardan so'ng berilgan hujjatlarni tan olish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat — xorijiy davlatlarning milliy qonunchiligi asosida berilgan ta'lim olganlikni tasdiqlovchi rasmiy hujjat;

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish — xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat egasiga O'zbekiston Respublikasi hududida ta'lim olish va (yoki) kasbiy faoliyat yuritish uchun ruxsat berish maqsadida vakolatli davlat organlari tomonidan xorijiy davlatlarda olingan ta'lim malakasini rasman tasdiqlash.

3. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish O'zbekiston Respublikasidagi vakolatli davlat organlariga xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqida murojaat etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning, ular voyaga yetmagan bo'lsa ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning (keyingi o'rinlarda talabgorlar deb ataladi) murojaatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish ushbu Nizomga 1-[ilovaga](#) muvofiq sxema bo'yicha:

umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish — Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda hududiy boshqarmalar deb ataladi) tomonidan;

o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o'rinlarda Davlat inspeksiyasi deb ataladi) tomonidan amalga oshiriladi.

5. Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish bepul amalga oshiriladi.

6. Xorijiy davlatlarda o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun eng kam oylik ish haqining uch baravari (2019-yil 1-sentabrdan boshlab bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari) miqdorida yig'im undiriladi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilinganda yig'im davlat xizmatini ko'rsatganlik uchun belgilangan yig'imning 90 foizi miqdorida undiriladi.

Undirilgan yig'im quyidagi tartibda taqsimlanadi:

a) davlat xizmatlari markazlariga talabgorlarning o'zlari kelib murojaat qilganda undirilgan yig'imning:

20 foizi — O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi budjetdan tashqari jamg'armasining shaxsiy hisob raqamiga;

40 foizi — O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga;

qolgan qismi — Davlat inspeksiyasining hisob raqamiga;

b) Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilinganda undirilgan yig'imning:

10 foizi — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi budjetdan tashqari jamg‘armasining shaxsiy hisob raqamiga;

*Oldingi tahrirga qarang.*

11,25 foizi — “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi qoshidagi Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyot loyihalarini boshqarish markazi” DUKning vakolatli bankdagi maxsus hisob raqamiga o‘tkaziladi;

50,625 foizi — Davlat inspeksiyasining hisob raqamiga o‘tkaziladi;

*(6-band “b” kichik bandining uchinchi va to‘rtinchi xatboshilar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-yanvardagi 24-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.01.2020-y., 09/20/24/0053-son)*

qolgan qismi — O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga o‘tkaziladi.

7. Xorijiy davlatlarda ta‘lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish quyidagi hollarda to‘g‘ridan to‘g‘ri (sinovlarsiz) amalga oshiriladi:

xorijiy davlatlarda umumiy o‘rta, o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va malaka oshirish ta‘limi olgan talabgorlarning xorijiy davlatlarda ta‘lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlari;

O‘zbekiston Respublikasi hududida alohida bo‘linmalari (filiallari) va qo‘shma ta‘lim muassasalari faoliyat yuritayotgan xorijiy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olgan talabgorlarning hujjatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi hamda Davlat inspeksiyasining qo‘shma qarori bilan ro‘yxati har yili tasdiqlanadigan xalqaro e‘tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida oliy ta‘lim muassasalari orasida birinchi 1 000 o‘rinni egallagan xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olgan talabgorlarning hujjatlari;

tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralarining yo‘llanmalari asosida mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun xorijiy davlatlar tomonidan ajratilgan kvotalar (grantlar) hisobidan ta‘lim olgan talabgorlarning hujjatlari;

1992-yil 1-yanvargacha xorijiy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirgan talabgorlarning hujjatlari;

Oliy ta‘limda sifatni kafolatlash Yevropa assotsiatsiyasining (European Association for Quality Assurance in Nigher Education) to‘laqonli a‘zolari — vakolatli tashkilotlar tomonidan akkreditatsiya qilingan ta‘lim muassasalarida ta‘lim olgan talabgorlarning hujjatlari, ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan yo‘nalishlar, mutaxassisliklar va kasblar bundan mustasno;

Amerika Qo‘shma Shtatlari, Avstraliya Ittifoqi, Isroil Davlati, Kanada, Singapur Respublikasi, Koreya Respublikasi, Yaponiya davlatlarining ushbu davlatlar vakolatli tashkilotlari tomonidan akkreditatsiya qilingan ta‘lim muassasalarida ta‘lim olgan talabgorlarning hujjatlari, ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan yo‘nalishlar, mutaxassisliklar va kasblar bundan mustasno;

xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobiga ta‘lim olgan talabgorlarning hujjatlari;

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlarida nazarda tutilgan hollarda ta‘lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlar.

## **2-bob. Xorijiy davlatlarda ta‘lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish uchun qabul qilish**

8. Xorijiy davlatlarda ta‘lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni tan olish uchun talabgorlar tomonidan bevosita davlat xizmatlari markazlari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro‘yxatdan o‘tgan holda murojaat qilinadi.

Davlat xizmatlari markazlariga murojaat qilinganda talabgor nomidan davlat xizmatlari markazi xodimi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini orqali murojaat qilinganda esa

talabgorning o'zi mustaqil ravishda xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqidagi so'rovnoman (keyingi o'rinlarda so'rovnoma deb ataladi) to'ldiradi.

9. Davlat xizmatlari markazi xodimi yoki talabgor tomonidan so'rovnomada talabgorning elektron manzili qayd etilishi xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha hududiy boshqarmalar yoki Davlat inspeksiyasining qabul qilgan qarori haqida elektron shaklda ma'lumot olishga bo'lgan roziligi hisoblanadi.

10. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun so'rovnomaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovaning nusxasi;

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovaning O'zbekiston Respublikasi davlat tiliga tarjima qilingan notarial tasdiqlangan nusxasi.

Davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat qilinganda talabgorning shaxsini tasdiqlovchi hujjat, xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovaning asl nusxasi O'zbekiston Respublikasi davlat tiliga tarjima qilingan notarial tasdiqlangan nusxasi bilan birga davlat xizmatlari markazi xodimiga taqdim etiladi.

Hujjatlar qabul qilingandan keyin talabgorning shaxsini tasdiqlovchi hujjat, xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilova asl nusxasining notarial tasdiqlangan tarjimasi bilan birga talabgorga qaytariladi.

Talabgorlardan ushbu bandeda ko'rsatilmagan hujjatlarni taqdim etishni talab qilish taqiqlanadi.

11. So'rovnoma davlat xizmatlari markazida yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali zarur ma'lumotlar kiritilgandan so'ng talabgorning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

Davlat xizmatlari markazlariga kelib murojaat qilgan talabgorning so'rovnoman elektron raqamli imzo bilan tasdiqlash imkoniyati bo'lmagan hollarda tegishli imzolar identifikatsiya qilishning boshqa vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo va boshqalar) bilan ham tasdiqlanishi mumkin.

12. Noto'g'ri yoki qalbaki ma'lumotlar taqdim etilganligi aniqlangan har qanday bosqichda xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish jarayoni to'xtatiladi, topshirilgan hujjatlar va to'langan yig'im qaytarilmaydi.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatning qalbaki ekanligini aniqlash Davlat inspeksiyasi tomonidan hujjat bergan ta'lim muassasasiga oid ma'lumot taqdim etish haqida tegishli davlatlar yoki tashkilotlarga so'rovnoma yuborish yoxud Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytlarda joylashtirilgan ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Qalbaki hujjat aniqlangan taqdirda, mazkur hujjatlar hududiy boshqarmalar yoki Davlat inspeksiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq chora ko'rish uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etiladi.

13. Quyidagi holatlarda davlat xizmatlari ko'rsatilishi rad etilishi mumkin:

talabgorlar tomonidan so'rovnomaning elektron raqamli imzo yoki imzoni identifikatsiya qilishning boshqa vositalari bilan tasdiqlanmaganligi;

talabgorlar tomonidan noto'g'ri yoki qalbaki ma'lumotlar taqdim etilgani ma'lum bo'lib qolganligi;

so'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlarning to'liq taqdim etilmaganligi;

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatganlik uchun belgilangan yig'imning to'lanmaganligi (xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish bundan mustasno).

Davlat xizmatlari ko'rsatishni mazkur bandeda ko'rsatilgan asoslardan boshqa holatlar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

14. Talabgor davlat xizmatidan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortishga haqli.

Talabgor davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganda, uning murojaati ko'rilmadan qoldiriladi va to'langan yig'im qaytarilmaydi.

Talabgorga bog'liq bo'lmagan holatlar (talabgorning vafot etishi, mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi va talabgorga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar tufayli davlat xizmatidan foydalanish zarurati mavjud emasligi) sababli davlat xizmatidan foydalanilmagan taqdirda, to'langan yig'im talabgorga yoki uning qonuniy vakiliga, qonuniy vakili bo'lmagan hollarda huquqiy vorisiga qaytariladi.

15. Davlat inspeksiyasiga ma'lumotlar:

davlat xizmatlari markazlari orqali murojaat qilinganda so'rovnoma qabul qilingan vaqtdan boshlab o'n daqiqa ichida;

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali murojaat qilinganda darhol yuboriladi.

16. To'liq taqdim etilmagan hujjatlar hududiy boshqarmalar yoki Davlat inspeksiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi hamda hujjatlar topshirilgan paytdan boshlab bir ish kunida so'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlar tegishliligi bo'yicha davlat xizmatlari markaziga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali kamchiliklari ko'rsatilgan holda talabgorga qaytarib yuboriladi.

### **3-bob. Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish**

17. Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun hududiy boshqarmalarda 3 — 5 kishidan iborat bo'lgan xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni o'rganish bo'yicha komissiyalar (keyingi o'rinlarda hududiy boshqarmalar komissiyalari deb ataladi) tashkil etiladi.

Hududiy boshqarmalar komissiyalari tarkibi va ularning ish tartibi hududiy boshqarmalar rahbarlari tomonidan tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq belgilanadi.

18. Hujjatlar davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali kelib tushgan paytdan boshlab hududiy boshqarmalar tomonidan bir ish kuni mobaynida so'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlarning to'liqligi tekshiriladi. Hujjatlar to'liq bo'lgan taqdirda bir ish kunidan kechikmay hududiy boshqarmalar komissiyalariga yuboriladi.

19. Hududiy boshqarmalar komissiyalari tomonidan uch ish kunida hujjatlar o'rganib chiqilib, xorijiy davlatdagi umumiy o'rta ta'lim muddati 9 yildan kam bo'lmasa hamda o'rta ta'lim muddati 11 yildan kam bo'lmasa, xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqida xulosa tayyorlanadi.

Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasidagi umumiy o'rta yoki o'rta ta'lim to'g'risidagi hujjatlarga tenglashtirilgan holda tan olinadi.

20. Hududiy boshqarmalar komissiyalarining xulosalariga ko'ra hududiy boshqarmalar rahbarlari tomonidan bir ish kunida xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqida buyruq chiqariladi.

Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqidagi buyruq asosida hududiy boshqarmalar tomonidan ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq shaklda ma'lumotnoma tayyorlanadi.

21. Ma'lumotnoma hududiy boshqarma mas'ul xodimi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, tegishliligiga ko'ra davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga yuboriladi.

Ma'lumotnoma qabul qilingan paytdan boshlab bir soat ichida davlat xizmatlari markazi tomonidan talabgorga bu haqida xabarnoma yuboriladi.

Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat ma'lumotnoma bilan birgalikda taqdim etilganda O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

22. Hududiy boshqarmalar komissiyalari butun yil davomida faoliyat ko'rsatadi va o'z faoliyati haqida har chorakda Davlat inspeksiyasiga hisobot beradi.

### **4-bob. Xorijiy davlatlarda o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish**

23. Xorijiy davlatlarda o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni (keyingi o'rinlarda xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlar deb ataladi) tan olish uchun Davlat inspeksiyasida xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun taqdim etiladigan hujjatlarni o'rganish bo'yicha ekspert komissiyalari (keyingi o'rinlarda ekspert komissiyalari deb ataladi) tashkil etiladi.

Hujjatlar davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali kelib tushgan paytdan boshlab Davlat inspeksiyasi tomonidan bir ish kuni mobaynida so'rovnoma va unga ilova qilingan hujjatlarning to'liqligi tekshiriladi. Hujjatlar to'liq bo'lgan taqdirda bir ish kunidan kechikmay ekspert komissiyalariga yuboriladi.

24. Ekspert komissiyalari Davlat inspeksiyasi boshlig'ining buyrug'i bilan tegishli ta'lim sohalari bo'yicha 5 — 21 kishidan iborat tarkibda tashkil etiladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga Davlat inspeksiyasi xodimlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar tizimidagi tashkilotlar va muassasalarning yetakchi olimlari va mutaxassislari kiritiladi.

Ekspert komissiyalari raislari komissiya a'zolari orasidan oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan saylanadi.

Ekspert komissiyalarining tarkibi va ularning ish tartibi Davlat inspeksiyasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq belgilanadi.

25. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlar ekspert komissiyalari raislari tomonidan komissiya a'zolari o'rtasida individual tarzda ko'rib chiqish va xulosa berish uchun taqsimlanadi. Ekspert komissiyalari a'zolari tomonidan har bir xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat bo'yicha alohida xulosa beriladi.

Ekspert komissiyalari a'zolari o'zlari bergan xulosalarning to'g'riligi va haqqoniyligi uchun javobgar hisoblanadi.

Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatni ekspertiza qilish jarayonida ekspert komissiyasi a'zosida hujjat yuzasidan tushunmovchilik va ikkilanish holatlari kelib chiqsa, ushbu hujjat komissiyaning boshqa a'zolari tomonidan kollegial tarzda o'rganilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Ekspert komissiyalari a'zolari tomonidan berilgan xulosalar ekspert komissiyasi kotibi tomonidan umumlashtiriladi hamda ekspert komissiyasi raisi va xulosa bergan komissiya a'zosi tomonidan imzolangan holda Davlat inspeksiyasiga taqdim etiladi.

26. Ekspert komissiyalarining xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatni tan olishni rad etish haqidagi xulosasi to'g'risidagi xabarnoma bir ish kuni ichida Davlat inspeksiyasining mas'ul xodimi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, tegishliligi bo'yicha davlat xizmatlari markaziga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga yuboriladi.

27. Quyidagilar ekspert komissiyalarining asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat inspeksiyasidan xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni ekspertiza qilish uchun qabul qilib olish;

xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olishga qo'yilgan talablar asosida talabgorlar tomonidan topshirilgan xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish;

xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarning ekspertizasi asosida tegishli xulosa tayyorlash;

talabgorning xorijiy davlatda olingan bilim (tayyorgarlik) darajasini tekshirish bo'yicha sinov materiallarini ishlab chiqish va tasdiqlash;

xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlar ekspertizasi yakunlari bo'yicha tayyorlangan xulosani ekspert komissiyasiga taqdim etish.

28. Ekspertiza davlat ta'lim standartlari va davlat talablari, ta'lim muassasalarining o'zlari joylashgan davlatlarda tan olinganligi haqidagi hujjat yoki ma'lumot, xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlar va ularga ilovalar nusxalari asosida amalga oshiriladi.

29. Ekspertiza quyidagilarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

o'qitilgan ta'lim dasturlari yoki o'quv rejalari hajmi va mazmuni;

o'zlashtirilgan mutaxassislik (ixtisoslik) fanlari hajmi (fanlarning nomi va soatlar miqdori); amaliyotning mavjudligi va uning davomiyligi.

Olingan bilimlar va malaka yakuniy tayyorgarlik nuqtai nazaridan ta'lim dasturlari, o'quv rejalari va o'zlashtirilgan bilimlar majmuidagi farqlarni hisobga olgan holda baholanadi.

30. Davlat inspeksiyasi tomonidan ekspert komissiyalarining so'roviga ko'ra xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatda ko'rsatilgan ta'lim muassasasining o'sha davlatda tan olinganligi, xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat ushbu hujjatda ko'rsatilgan ta'lim muassasasi tomonidan berilganligi tekshirilishi, zarur hollarda tegishli ta'lim muassasasi, mahalliy va xorijiy tashkilotlardan aniqlashtiruvchi hujjatlar so'rab olinishi mumkin.

31. Talabgorlar o'z tayyorgarligi haqidagi boshqa hujjatlarni, jumladan, ta'lim olishning keyingi darajalari, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish mumkinligi, amaliy tajriba haqidagi hujjatlarni ham O'zbekiston Respublikasi davlat tiliga notarial tasdiqlangan tarjimalari bilan birga taqdim etishga haqlidirlar.

32. Ekspert komissiyalari xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha hujjatlarni ko'pi bilan o'n ish kuni ichida ekspertizadan o'tkazadi va xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olishga qo'yiladigan talablarga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risida xulosa tayyorlaydi.

33. Ekspert komissiyalari a'zolariga hamda ekspert komissiyalari faoliyatiga jalb etiladigan mutaxassislariga Davlat inspeksiyasi bilan tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida har bitta xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat ekspertizasi uchun bazaviy hisoblash miqdorining beshdan bir qismi miqdorida haq to'lanadi.

### **5-bob. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olishga qo'yiladigan talablar**

34. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqida ijobiy xulosa berish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:

xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatni bergan ta'lim muassasasi va ushbu muassasa tomonidan berilgan hujjatning o'sha davlat tomonidan tan olingan bo'lishi;

xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat berishga asos bo'lgan ta'lim standartlarining yoki ta'lim dasturlarining O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan davlat ta'lim standartlari va ta'lim dasturlariga muvofiqligi;

O'zbekiston Respublikasi va xorijiy ta'lim to'g'risida hujjatni bergan davlatning ta'lim tizimiga qo'yilgan umumiy talablarning mosligi.

35. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarda ko'rsatib o'tilgan tayyorgarlik sohasi O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va kurslarga muvofiq kelmasa yoki o'qitish hamda tayyorlash O'zbekiston Respublikasida olib borilmaydigan ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar va sohalarda amalga oshirilgan bo'lsa, ushbu hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish uchun Davlat inspeksiyasi tomonidan ta'lim sohasi eng yaqin bo'lgan ekspert komissiyalari faoliyatiga qo'shimcha mutaxassislar jalb etilishi mumkin.

36. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish quyidagi hollarda rad etiladi:

a) xorijiy davlatlarda kasbiy ma'lumot to'g'risida hujjat beradigan ta'limning umumiy me'yoriy davri (to'liq umumiy o'rta yoki o'rta ma'lumot olingandan keyin) O'zbekiston Respublikasi ta'lim standartlarida nazarda tutilgan davrdan ikki yildan kam bo'lsa;

b) xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat berilgan davlatda uning egasiga O'zbekiston Respublikasidagiga qaraganda ta'lim olish va (yoki) kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun kam huquqlar berilgan bo'lsa (hujjat egasi ta'limning keyingi bosqichida o'qishni davom ettirish, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lmasa);

v) ma'lumot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilmagan ta'lim shaklida olingan bo'lsa;

g) oliy ta'lim bosqichlarida:

bakalavriat bo'yicha o'qish muddati uch yildan kam bo'lsa yoki Yevropa ta'lim tizimi asosida o'qish davomida 240 dan kam kredit to'plagan bo'lsa;

magistratura bo'yicha o'qish muddati bir yildan kam bo'lsa;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari qo'shib o'qitiladigan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim olganda umumiy o'qish davri uch yildan kam bo'lsa;

d) to'g'ridan to'g'ri (sinovlarsiz) tan olinadigan xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar ushbu Nizomning 7-bandida ko'rsatilgan talablarga to'g'ri kelmasa.

Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olishni boshqa asoslar bo'yicha rad etish taqiqlanadi.

Xorijiy davlatlar ta'lim tizimi asosida to'plangan kreditlar Yevropa ta'lim tizimi bo'yicha to'planishi lozim bo'lgan minimal kredit miqdoriga (240 kredit) qiyoslangan holda aniqlanadi.

37. Xorijiy davlatlarda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlar tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasidagi o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi hujjatlarga tenglashtirilgan holda tan olinadi.

Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar xorijiy davlatda tamomlangan ta'lim bosqichi bo'yicha tan olinadi.

Xorijiy davlatlarda kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish bo'yicha ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar xorijiy davlatda tamomlangan kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi bo'yicha tan olinadi.

### **6-bob. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olishda test sinovlarini tashkil etish**

38. Ekspert komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlari tan olish uchun topshirilgan talabgorlar uchun Davlat inspeksiyasi tomonidan test sinovlari tashkil etiladi (xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar to'g'ridan to'g'ri (sinovlarsiz) tan olinadigan holatlar bundan mustasno).

Test sinovlarining o'tkazilish vaqtlari haqidagi ma'lumot sinovlar boshlanishidan kamida o'n kun oldin Davlat inspeksiyasining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytiga joylashtiriladi.

39. Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlari bo'yicha ekspert komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan talabgorlar test sinovlari o'tkazilishi haqidagi ma'lumot Davlat inspeksiyasining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan paytdan boshlab ko'pi bilan olti oy davomida test sinovlarida ishtirok etmasa, test sinovlarini topshirish uchun so'rovnomaga to'ldirgan holda belgilangan tartibda qaytadan murojaat qiladi.

Test sinovlarini topshirish uchun qayta murojaat qilinganda, talabgorlarning xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlari ekspertizadan o'tkazilmaydi.

40. Test sinovlari talabgorlarning ta'lim olgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha mutaxassislik fanlaridan o'tkaziladi.

Test sinovlari 50 ta savoldan iborat bo'lib, har bir test savoli uchun 2 daqiqadan, jami 100 daqiqa vaqt beriladi. Har bir to'g'ri bajarilgan test savoli 2 ball bilan baholanadi.

41. Test sinovlari natijalariga ko'ra 54 va undan kam ball to'plagan talabgorlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlari tan olinmaydi.

42. Test sinovlari natijalariga ko'ra ta'lim to'g'risidagi hujjatlari tan olinmagan talabgorlar davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ushbu Nizomda belgilangan tartibda qaytadan murojaat qilishlari mumkin.

Talabgorlar test sinovlarini qayta topshirish uchun murojaat qilganda ularning xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlari ekspert komissiyasi tomonidan qayta ko'rib chiqilmaydi.

Test sinovlarini qayta topshirish uchun talabgorlardan eng kam oylik ish haqining ikki baravari (2019-yil 1-sentabrdan boshlab bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari) miqdorida yig'im undiriladi.

43. Talabgorlar:

xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni ekspertiza qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha — ekspert komissiyasining xulosasini olgan kundan boshlab o'n ish kuni ichida; test sinovlarini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq masalalar bo'yicha — sinovlar o'tkazilgan kuni;

test sinovlari natijalaridan noroziligi bo'yicha — sinovlar natijalari e'lon qilingan paytdan boshlab o'n ish kuni ichida Davlat inspeksiyasiga shikoyat qilishlari mumkin.



Talabgorlardan tushgan shikoyatlar Davlat inspeksiyasi boshlig'ining buyrug'i bilan tashkil etiladigan apellatsiya komissiyasi tomonidan ikki hafta ichida ko'rib chiqiladi va talabgorlarga yozma ravishda javob yuboriladi.

Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni ekspertiza qilishda ishtirok etgan ekspert komissiyalari a'zolari apellatsiya komissiyalari tarkibiga kiritilishi mumkin emas.

Shikoyatni apellatsiya komissiyalari tomonidan ko'rib chiqish jarayonida talabgor ham bevosita ishtirok etishga haqli.

### **7-bob. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olishni rasmiylashtirish**

44. Ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim to'g'risidagi hujjatlarga ijobiy xulosa berilgan hamda test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan talabgorlarga, shuningdek, xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlari to'g'ridan to'g'ri (sinovlarsiz) tan olingan talabgorlarga Davlat inspeksiyasi boshlig'i tomonidan:

xorijiy davlatda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqida ushbu Nizomga **3-ilovaga** muvofiq shakldagi guvohnoma;

xorijiy davlatda oliy ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqida ushbu Nizomga **4-ilovaga** muvofiq shakldagi guvohnoma;

xorijiy davlatda kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqida ushbu Nizomga **5-ilovaga** muvofiq shakldagi guvohnoma;

xorijiy davlatda malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqida ushbu Nizomga **6-ilovaga** muvofiq shakldagi guvohnoma berish bo'yicha buyruq qabul qilinadi.

45. Davlat inspeksiyasi boshlig'ining xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqidagi guvohnoma berish to'g'risidagi buyrug'iga asosan tegishli guvohnomalar tayyorlanadi hamda Davlat inspeksiyasi mas'ul xodimi tomonidan elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, uch ish kuni ichida tegishlilikiga ko'ra davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorlarga yuboriladi.

Guvohnoma qabul qilingan paytdan boshlab bir soat ichida davlat xizmatlari markazi tomonidan talabgorga bu haqida xabarnoma yuboriladi.

Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat guvohnoma bilan birgalikda taqdim etilganda O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

46. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat bergan ta'lim muassasasi, mahalliy va xorijiy tashkilotlardan aniqlashtiruvchi hujjatlarni olish talab etilgan hollarda Davlat inspeksiyasi tomonidan ta'lim muassasasiga oid ma'lumot taqdim etish haqida tegishli davlat yoki tashkilotlarga so'rovnomma yuboriladi.

Xorijiy davlat yoki tashkilotdan xorijiy ta'lim muassasasiga oid ma'lumotlarni olish uchun talab etiladigan vaqt ushbu Nizomda belgilangan muddatlarga kirmaydi.

### **8-bob. Yakunlovchi qoidalar**

47. Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta, o'rta va o'rta maxsus ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi ma'lumotnoma va guvohnoma shaxslarga O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarida ta'limning navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish hamda kasb-hunar, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi guvohnoma O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim muassasalarida ta'limning navbatdagi bosqichlarida o'qishni davom ettirish va kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beradi.

48. Hududiy boshqarmalar va Davlat inspeksiyasi xorijiy davlatlar tomonidan tan olingan xorijiy ta'lim muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlab qo'yish choralarini ko'radilar.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi xorijiy davlatlarning umumiy o'rta, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olishda hududiy boshqarmalarga va Davlat inspeksiyasiga ko'maklashadi.

49. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi ma'lumotnoma va (yoki) guvohnoma egasining familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgargan taqdirda uning arizasiga binoan ma'lumotnoma va guvohnoma qayta rasmiylashtiriladi.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi ma'lumotnoma va (yoki) guvohnomani qayta rasmiylashtirish tegishli hujjatlar ilova qilingan holda ariza olingan kundan boshlab vakolatli organ tomonidan o'n besh ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

50. Yo'qotib qo'yilgan yoki yaroqsiz holga kelgan xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi ma'lumotnoma va (yoki) guvohnoma o'rniga, ular egasining arizasiga ko'ra dublikat beriladi.

51. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqidagi ma'lumotnoma va (yoki) guvohnomaning qayta rasmiylashtirilganligi yoki dublikat berilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

52. Talabgorlar xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish yoki uni rad etish haqidagi xulosa, shuningdek, Davlat inspeksiyasi xodimlari va ekspert komissiyalari a'zolarining xatti-harakati (harakatsizligi) yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish natijalari yuzasidan shikoyat va arizalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

53. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqidagi guvohnomalar hisobi Davlat inspeksiyasining "Guvohnoma" axborot tizimlari kompleksi reyestrda yuritiladi.

Guvohnomalar reyestrda talabgor to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar, xususan, talabgorning familiyasi, ismi, otasining ismi, ta'lim olgan davlat va ta'lim muassasasining nomi, ta'lim yo'nalishi, mutaxassisligi va kursi nomi, guvohnoma seriyasi va raqami, guvohnomaning berilgan sanasi va tartib raqami ko'rsatiladi.

54. Davlat xizmatlari markazlari va Davlat inspeksiyasi talabgorlar haqidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi lozim.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi nizomga  
1-ILOVA

## Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish

### SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddat
I. Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish			
1-bosqich	Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini tan olish haqida murojaat etgan shaxs Davlat xizmatlari markazlari	1. Xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun bevosita davlat xizmatlari markazlari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tgan holda murojaat qilish hamda hujjatlarni topshirish. 2. Talabgorlar tomonidan topshirilgan hujjatlarni qabul qilib olish hamda tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari yoki	Zaruratga ko'ra Hujjatlar topshirilgandan so'ng darhol

		Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasiga yuborish.	
2-bosqich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi	Hujjatlarni ularning to'liqligini tekshirgan holda: a) taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lsa — ularni tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari yoki Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasida tashkil etiladigan komissiyalarga taqdim etish; b) taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga javob bermasa — ularni kamchiliklarini ko'rsatgan holda davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga qaytarib yuborish; v) qalbaki hujjat aniqlangan taqdirda — taqdim etilgan hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiq chora ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jo'natish.	Bir ish kunida
3-bosqich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari yoki Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasida tashkil etiladigan komissiyalar	Xorijiy davlatda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish natijasida xorijiy davlatda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish yoxud tan olishni rad etish haqida xulosa tayyorlash hamda tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari yoki Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasiga yuborish.	Uch ish kunida
4-bosqich	Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari yoki Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi	Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari yoki Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasida tashkil etilgan komissiyalarning tegishli xulosasiga ko'ra: a) xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlari tan olishga tavsiya etilgan talabgorlarga ma'lumotnoma berish haqida Qoraqalpog'iston	Bir ish kunida

		<p>Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi boshlig'i, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlarining buyruqlarini qabul qilish hamda tegishli namunadagi ma'lumotnomani tayyorlash;</p> <p>b) xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat belgilangan talablarga javob bermasligi haqidagi tegishli xabarnomani tayyorlash;</p> <p>v) tegishli ma'lumotnoma (xabarnoma)ni davlat xizmatlari markazlariga jo'natish yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga yuborish.</p>	
5-bosqich	Davlat xizmatlari markazlari	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi mas'ul o'zodimining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan ma'lumotnomalarni talabgorga yuborish.</p>	Bir ish kunida

## II. Xorijiy davlatlarda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish

1-bosqich	<p>Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini tan olish haqida murojaat etgan shaxs Davlat xizmatlari markazlari</p>	<p>1. Xorijiy davlatlarda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun bevosita davlat xizmatlari markazlari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tgan holda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga murojaat qilish hamda hujjatlarni topshirish.</p> <p>2. Hujjatlarni qabul qilib olish hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yuborish.</p>	Zaruratga ko'ra Hujjatlar topshirilgandan so'ng darhol
2-bosqich	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish	<p>Hujjatlarni ularning to'liqligini tekshirgan holda:</p> <p>a) taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lsa — ularni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat</p>	Bir ish kunida

	<p> davlat inspeksiyasi</p>	<p>inspeksiyasida tashkil etiladigan ekspert komissiyalariga taqdim etish;</p> <p>b) taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga javob bermasa — ularni kamchiliklarini ko‘rsatgan holda davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga qaytarib yuborish;</p> <p>v) qalbaki hujjat aniqlangan taqdirda — taqdim etilgan hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiq chora ko‘rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jo‘natish.</p>	
<p>3-bosqich</p>	<p>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tashkil etiladigan ekspert komissiyalari</p>	<p>Xorijiy davlatda o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish natijasida ushbu hujjatlarni tan olish yoxud tan olishni rad etish haqida xulosa tayyorlash hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yuborish.</p>	<p>O‘n ish kunida</p>
<p>4-bosqich</p>	<p>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi</p>	<p>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tashkil etiladigan ekspert komissiyasining tegishli xulosasiga ko‘ra:</p> <p>a) xorijiy davlatlarda o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi olganlik to‘g‘risidagi hujjatlari tan olishga tavsiya etilgan talabgorlarga guvohnoma berish haqida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bo‘lig‘ining buyrug‘ini qabul qilish hamda tegishli namunadagi guvohnomani tayyorlash;</p> <p>b) xorijiy davlatlarda o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi olganlik to‘g‘risidagi hujjat belgilangan talablarga javob bermasligi haqidagi tegishli xabarnoma tayyorlash;</p> <p>v) tegishli guvohnoma (xabarnoma)ni davlat xizmatlari markazlariga jo‘natish yoki Yagona</p>	<p>Uch ish kunida</p>

		interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga yuborish.	
5-bosqich	Davlat xizmatlari markazlari	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi mas'ul xodimining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan guvohnoma (xabarnoma)ni talabgorga yuborish.	Bir ish kunida

### III. Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish

1-bosqich	Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini tan olish haqida murojaat etgan shaxs Davlat xizmatlari markazlari	<p>1. Xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun bevosita davlat xizmatlari markazlari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tgan holda murojaat qilish hamda hujjatlarni topshirish.</p> <p>2. Hujjatlarni qabul qilib olish hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yuborish.</p>	Zaruratga ko'ra Hujjatlar topshirilgan zahoti
2-bosqich	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	<p>Hujjatlarni ularning to'liqligini tekshirgan holda:</p> <p>a) taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lsa — ularni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tashkil etiladigan ekspert komissiyalariga taqdim etish;</p> <p>b) taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga javob bermasa — ularni kamchiliklarini ko'rsatgan holda davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga qaytarib yuborish;</p> <p>v) qalbaki hujjat aniqlangan taqdirda — taqdim etilgan hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiq chora ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jo'natish.</p>	Bir ish kunida
3-bosqich	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi	Taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha: a) xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi	O'n ish kunida

	<p>Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tashkil etiladigan ekspert komissiyalari</p>	<p>olganlik to'g'risidagi to'g'ridan to'g'ri (sinovlarsiz) tan olinadigan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish va tan olish haqida xulosa tayyorlash hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yuborish;</p> <p>b) xorijiy davlatda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish natijasida talabgorni test sinovlariga tavsiya etish;</p> <p>v) xorijiy davlatda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olishni rad etish haqida xulosa tayyorlash hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yuborish.</p>	
<p>4-bosqich</p>	<p>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi</p>	<p>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tashkil etilgan ekspert komissiyasining xulosasi asosida:</p> <p>a) xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi to'g'ridan to'g'ri (sinovlarsiz) tan olinadigan hujjatlar bo'yicha — xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish haqida buyruqni qabul qilish hamda tegishli namunadagi guvohnomani tayyorlash;</p> <p>b) ekspert komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan taqdirda — talabgorlarni test sinovlaridan o'tkazish;</p> <p>v) ekspert komissiyalari tomonidan salbiy xulosa berilgan taqdirda — xorijiy davlatda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olishni rad etish haqida xabarnoma tayyorlash hamda davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorlarga yuborish.</p>	<p>Bir ish kunida Tasdiqlangan jadval asosida Bir ish kunida</p>

5-bosqich	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	<p>Test sinovlari natijalariga ko'ra:</p> <p>a) yetarli ball to'play olmagan talabgorlarga — xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatni tan olish rad etish va bu haqida davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorlarga xabarnoma yuborish;</p> <p>b) test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan talabgorlarga — xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarini tan olish to'g'risida guvohnoma berish haqida buyruq qabul qilish hamda guvohnomani davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga yuborish.</p>	Bir ish kunida Uch ish kunida
-----------	--	--	----------------------------------

6-bosqich	Davlat xizmatlari markazlari	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi mas'ul xodimining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan guvohnoma (xabarnoma)ni talabgorga yuborish.	Bir ish kunida
-----------	------------------------------	--	----------------

#### IV. Xorijiy davlatlarda malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish

1-bosqich	Talabgor Davlat xizmatlari markazlari	<p>1. Xorijiy davlatlarda malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun bevosita davlat xizmatlari markazlari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatdan o'tgan holda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga murojaat qilish hamda hujjatlarni topshirish.</p> <p>2. Hujjatlarni qabul qilib olish hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yuborish.</p>	Zaruratga ko'ra Hujjatlar topshirilgandan so'ng darhol
-----------	---------------------------------------	--	--

2-bosqich	Vazirlar Mahkamasi	Hujjatlarni ularning to'liqligini tekshirgan holda:	Bir ish kunida
-----------	--------------------	---	----------------



	<p>huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi</p>	<p>a) taqdim etilgan hujjatlar to'liq bo'lsa — ularni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tashkil etilgan ekspert komissiyalariga taqdim etish;</p> <p>b) taqdim etilgan hujjatlar belgilangan talablarga javob bermasa — ularni kamchiliklarini ko'rsatgan holda davlat xizmatlari markazlariga yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga qaytarib yuborish;</p> <p>v) qalbaki hujjat aniqlangan taqdirda — taqdim etilgan hujjatlarni qonun hujjatlariga muvofiq chora ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jo'natish.</p>	
3-bosqich	<p>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tashkil etiladigan ekspert komissiyalari</p>	<p>Xorijiy davlatda malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish natijasida ushbu hujjatlarni tan olish yoxud tan olishni rad etish haqida xulosa tayyorlash hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yuborish.</p>	<p>O'n ish kunida</p>
4-bosqich	<p>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi</p>	<p>Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida tashkil etilgan ekspert komissiyasining tegishli xulosasiga ko'ra:</p> <p>a) xorijiy davlatlarda malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlari tan olishga tavsiya etilgan talabgorlarga guvohnoma berish haqida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'ining buyruq'ini qabul qilish hamda tegishli namunadagi guvohnomani tayyorlash;</p> <p>b) xorijiy davlatlarda malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjat belgilangan talablarga javob bermasligi</p>	<p>Uch ish kunida</p>

		haqidagi tegishli xabarnoma tayyorlash; v) tegishli guvohnoma (xabarnoma)ni davlat xizmatlari markazlariga jo'natish yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali talabgorga yuborish.	
5-bosqich	Davlat xizmatlari markazlari	Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi mas'ul xodimining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan guvohnoma (xabarnoma)ni talabgorga yuborish.	Uch ish kunida

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi [nizomga](#)  
2-ILOVA

**XORIJIY DAVLATDA UMUMIY O'RTA VA O'RTA TA'LIM OLGANLIK  
TO'G'RISIDAGI NUJJATNI TAN OLISN NAQIDAGI  
MA'LUMOTNOMA**

**O' № 000000**

Ushbu ma'lumotnoma bilan fuqaro

\_\_\_\_\_ ga  
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

tomonidan

(ta'lim muassasasi nomi)

\_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_

berilgan

(hujjat berilgan yil)

(hujjat berilgan davlat nomi)

\_\_\_\_\_ -seriyali \_\_\_\_\_ -raqamli ma'lumot to'g'risidagi hujjat (guvohnoma, shahodatnoma)

O'zbekiston

Respublikasida tan olinadi va umumiy o'rta ma'lumot (o'rta ma'lumot) haqidagi guvohnomaga (shahodatnomaga) tenglashtiriladi.

Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i \_\_\_\_\_

(imzo)

(familiyasi, ismi va otasining ismi)


(muhr o'rni)

Ro'yxatdan o'tkazish raqami: \_\_\_\_\_

Berilgan sanasi: \_\_\_\_\_

(kun, oy, yil)

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi [nizomga](#)  
3-ILOVA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MANKAMASI  
NUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI  
NAZORAT QILISN DAVLAT  
INSPEKSIYASI**

**XORIJIY DAVLATDA O'RTA MAXSUS VA KASB-NUNAR TA'LIMI OLGANLIK  
TO'G'RISIDAGI NUJJATNI TAN OLISN NAQIDAGI**

**GUVONNOMA**

**O'MK № 000000**

Ushbu ma'lumotnoma bilan fuqaro \_\_\_\_\_ ga  
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

\_\_\_\_\_ tomonidan  
(ta'lim muassasasi nomi)

\_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ berilgan  
(hujjat berilgan yil) (hujjat berilgan davlat nomi)

\_\_\_\_\_ -seriyali \_\_\_\_\_ -raqamli ma'lumot to'g'risidagi hujjat O'zbekiston  
Respublikasida

tan olinadi va \_\_\_\_\_ mutaxassisligi bo'yicha  
(mutaxassislik nomi)

o'rta maxsus (kasb-hunar) ma'lumoti darajasidagi diplomga tenglashtiriladi.


Davlat inspeksiyasi boshlig'i: \_\_\_\_\_  
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

Ro'yxatdan o'tkazish raqami \_\_\_\_\_  
Berilgan sanasi: \_\_\_\_\_

(kun, oy, yil)

QR — kod

**Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi nizomga  
4-ILOVA**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MANKAMASI  
NUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI  
NAZORAT QILISN DAVLAT  
INSPEKSIYASI**

**XORIJIY DAVLATDA OLIY TA'LIM OLGANLIK TO'G'RISIDAGI  
NUJJATNI TAN OLISN NAQIDAGI  
GUVONNOMA**

**O № 000000**

Ushbu guvohnoma bilan fuqaro \_\_\_\_\_ ga  
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

\_\_\_\_\_ tomonidan  
(ta'lim muassasasi nomi)

\_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ berilgan  
(hujjat berilgan yil) (hujjat berilgan davlat nomi)

\_\_\_\_\_ seriyali \_\_\_\_\_ raqamli ma'lumot to'g'risidagi hujjat O'zbekiston  
Respublikasida

\_\_\_\_\_ ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tan  
olinadi.

(ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi nomi)


Davlat inspeksiyasi boshlig'i: \_\_\_\_\_  
(familiyasi, ismi va otasining ismi)

Ro'yxatdan o'tkazish raqami \_\_\_\_\_  
Berilgan sanasi: \_\_\_\_\_

(kun, oy, yil)

QR — kod

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi nizomga  
5-ILOVA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MANKAMASI  
NUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI  
NAZORAT QILISN DAVLAT  
INSPEKSIYASI

XORIJIY DAVLATDA KADRLARNI QAYTA TAYYORLASN TA'LIMI  
OLGANLIK TO'G'RISIDAGI NUJJATNI TAN OLISN NAQIDAGI  
GUVONNOMA

QT № 000000

Ushbu guvohnoma bilan fuqaro \_\_\_\_\_ ga

(familiyasi, ismi va otasining ismi)

\_\_\_\_\_ tomonidan

(ta'lim muassasasi nomi)

\_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ berilgan

(hujjat berilgan yil)

(hujjat berilgan davlat nomi)

\_\_\_\_\_ seriyali \_\_\_\_\_ raqamli ma'lumot to'g'risidagi hujjat O'zbekiston  
Respublikasida

\_\_\_\_\_ qayta tayyorlash kursi bo'yicha tan olinadi.

(qayta tayyorlash kursi nomi)

Davlat inspeksiyasi boshlig'i:

\_\_\_\_\_ (familiyasi, ismi va otasining ismi)

Ro'yxatdan o'tkazish raqami

Berilgan sanasi:

\_\_\_\_\_ (kun, oy, yil)

QR — kod

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi nizomga  
6-ILOVA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MANKAMASI  
NUZURIDAGI TA'LIM SIFATINI  
NAZORAT QILISN DAVLAT  
INSPEKSIYASI

XORIJIY DAVLATDA MALAKA OSNIRISN TA'LIMI OLGANLIK  
TO'G'RISIDAGI NUJJATNI TAN OLISN NAQIDAGI  
GUVONNOMA

MO № 000000

Ushbu guvohnoma bilan fuqaro \_\_\_\_\_ ga

(familiyasi, ismi va otasining ismi)

\_\_\_\_\_ tomonidan

(ta'lim muassasasi nomi)

\_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ berilgan

(hujjat berilgan yil)

(hujjat berilgan davlat nomi)

\_\_\_\_\_ seriyali \_\_\_\_\_ raqamli ma'lumot to'g'risidagi hujjat O'zbekiston  
Respublikasida

\_\_\_\_\_ malaka oshirish kursi bo'yicha tan  
olinadi.

(malaka oshirish kursi nomi)

Davlat inspeksiyasi boshlig'i:

\_\_\_\_\_

Ro'yxatdan o'tkazish raqami

Berilgan sanasi:

\_\_\_\_\_

(kun, oy, yil)

QR — kod

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi 620-son qaroriga  
2-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ba'zi qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. Vazirlar Mahkamasining "Rasmiy davlat hujjatlarini tayyorlash, hisobga olish, saqlash, topshirish hamda ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2000-yil 25-iyuldagi 283-son qarorida (O'zbekiston Respublikasi QT, 2000-y., 7-son, 42-modda):

1-bandning uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

2-ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 18-iyuldagi 515-son qarorida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 29-son, 698-modda):

a) 2-bandning oltinchi xatboshidagi "tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini aniqlash)ni" so'zlari "tan olishni" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 1-ilovada:

8-bandning oltinchi xatboshidagi "tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini aniqlash)ni" so'zlari "tan olishni" so'zlari bilan almashtirilsin;

9-bandning "d" kichik bandida:

birinchi xatboshidagi "tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini aniqlash)ni" so'zlari "tan olishni" so'zlari bilan almashtirilsin;

uchinchi xatboshidan "va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini aniqlash)" so'zlari chiqarib tashlansin;

to'rtinchi va beshinchi xatboshilardagi "nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish)" so'zlari "tan olish" so'zlari bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshidagi "va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) amalga oshirilganda talabgorga davlat namunasidagi" so'zlari "talabgorlarga" so'zi bilan almashtirilsin.

v) 3-ilovaning 1-bandini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldagi 620-son qaroriga  
3-ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari**

**RO'YXATI**

1. Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" 2017-yil 3-apreldagi 173-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2017-y., 14-son, 222-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish kiritish haqida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining fuqaro aviatsiyasini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 27-noyabrdagi PF-5584-son Farmoni)" 2019-yil 29-martdagi 261-son qarori.

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.07.2019-y., 09/19/620/3482-son; 15.01.2020-y., 09/20/24/0053-son)*